



TOSHKENT SHAHRIDAGI
TURIN POLITEKNIKA UNIVERSITETI

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalarini rag'batlantirish maqsadida tadbiq qilingan “University points” va “Rector's points” tizimlari to'g'risida

MA'LUMOT



University points – talabalarning o‘quv, ilmiy, ijtimoiy va ko‘ngillilik faoliyatida aniq natijaga ega amalga oshirilgan ishlar uchun beriladigan ballar.

Rector's points – universitet faoliyati bilan bog‘liq vazifalar, loyihalar va talabalarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun beriladigan ballar.

Ballar talabaning semestr yakunidagi **imtihon natijasini yaxshilash** maqsadida foydalanilishi mumkin, bunda talabaning fan bo‘yicha yakuniy imtihondan keyingi to‘plagan ballari **12 balldan kam bo‘lmasligi** lozim.



TOSHKENT SHAHRIDAGI
TURIN POLITEKNIKA UNIVERSITETI

“University points” beriladigan yo‘nalishlar

Ichki tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok

(MS Office skills, AI prompt engineering, communication, leadership, speed typing va boshqalar)

Xalqaro darajada tan olingan sertifikatlar

(Google, Oracle, Cisco kabi IT sertifikatlari; IELTS, TOEFL, HSK, TestDaF kabi til sertifikatlari, SAT, GRE, GMAT kabi xalqaro sertifikatlar)

Universitetning o‘quv-uslubiy
faoliyatini yaxshilashga
qaratilgan ishlarda faol
ishtirok etish

Ko‘ngillilik (volonterlik)
faoliyati

Ilmiy faoliyat, fan olimpiadalari, hackathonlar va tanlovlarda g‘oliblik

(patent (DGU) olish, maqola chop etish, ixtiro/MVP yoki dastur yaratish, konferensiya va ilmiy seminarlarda ma’ruza, ilmiy-tadqiqot loyihalari)

Talabalar hayotini yaxshilash bo‘yicha tashabbuslar

(masalan, imtihonlarga tayyorlov mashg‘ulotlari o‘tkazish)

3 oydan kam bo‘lmagan
muddatda o‘z mutaxassisligi
bo‘yicha ish faoliyatini olib
borish



“Rector’s points” berish tartibi

- **Vazifa (texnik topshiriq)** aniq shaklda universitet ijtimoiy tarmoqlari va maxsus platformada e’lon qilinadi.
- Vazifani bajarish uchun talab etiladigan **vaqt, resurs va talabalar soni** belgilanadi.
- Ishtirok etish istagini bildirgan talabalar **Talabalar bilan ishlash boshqarmasi** tomonidan **ro’yxatga olinadi**.
- Vazifani bajarishda **mentor** biriktiriladi (rektor/universitet xodimlari/boshqa mutaxassislar)
- Vazifa yakunida **taqdimot** o’tkaziladi va **Komissiya** baholash asosida ball beradi.



Umumiy qoidalar va cheklovlar

Talaba har qanday fanini
darsdan tashqari
to'planadigan ballar
("University points", "Rector's
points", "Tutor point") bilan
yopishga **ruxsat berilmaydi**

Talaba yoki jamoa erishgan
natijaga qarab **1 dan 10 gacha**
ball oladi.

Jamoa bo'lib bajarilgan ishda
ball teng taqsimlanadi

"University points" va
"Rector's points" ballari **bir**
semestr davomida **3 tagacha**
fandan imtihon natijasini
yaxshilash uchun ishlatiladi

Talaba darsdan tashqari
barcha dasturlar orqali bir
semestr davomida imtihon
natijalarini yaxshilash uchun
bitta fanga eng ko'pi bilan 15
ball yo'naltirishi mumkin

Ballar **pul ekvivalenti sifatida**
foydalanilmaydi va boshqa
imtiyozlarga almashtirilmaydi.

Ballar **boshqa talabaga**
o'tkazib berilmaydi

Har bir semestr uchun yakuniy
ballar ro'yhati Universitet
rektori tomonidan
tasdiqlanadi va **sessiya**
imtihonlari boshlanishidan
oldin e'lon qilinadi